



ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB MASALALARI

Shavkatova Irodaxon Azimjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakultetining o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374656>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy o'zbek tilining kelib chiqish asoslari, taraqqiyot bosqichlari, shuningdek hozirgi davr yondashuvlarini o'z ichiga olgan.

Bundan besh asr muqaddam hazrat Alisher Navoiy:

“Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam”, deb yozgan edi. Ya'ni ul zot ona tili bayrog'ini baland ko'tarib, butun el-ulusni, yurtlarni shu bayroq ostida birlashtirdim, deb iftixor qilgan. Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin”¹.

Kalit so'zlar: O'zbek tilining asoschisi, o'zbek tilshunosligining taraqqiyot bosqichlari, O'zbek tili-davlatimiz timsoli.

Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir.”

Alisher Navoiygacha o'zbek va umuman, turk xalqlari adabiyoti eron adabiyotining ta'siri ostida edi. Hamma shoirlar deyarli fors tilida yozar edilar. o'zbek tilida yozish ayb sanalar va o'zbek tilida yozilgan asarlarni saroy ahillari tan olmas edilar. Navoiy shunday bir sharoitda “Muhokamat ul-lug'atayn” nomli mashhur asarini yozib, o'sha davrda “turk tili” deb atalgan qadimgi o'zbek tilining fors tilidan ham boy, rang-barang ekanini isbot qildi va o'z asarlarini o'zbek tilida bitdi. Shuning uchun Alisher Navoiyni o'zbek adabiy tilining asoschisi deymiz. Uning juda ko'p ilmiy, tarixiy asarlaridan tashqari, g'azal va dostonlarining o'zi bir necha yuz ming misrani tashkil qiladi. Navoiy g'azallarini o'z ichiga olgan “Chor devon” 47 ming misradan iboratdir. Badiiy ijodning go'zal namunalarini to'plagan “Xamsa” asari 60 ming misraga yaqin she'rni o'z ichiga oladi. Navoiyning 6 mingga yaqin forscha g'azalari ham bor. She'r va tafakkuming buyuk sohibqironi bo'lgan Alisher Navoiy o'zida tug'ilgan har bir fikrni she'r bilan ifoda qilar edi. Bu haqda uning o'zi ham

Ko'nglimda ne m a'ni bo'lsa erdi paydo,

Til aylar edi nazm libosida ado, – deb yozgan.

O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi tufayli 1929- yilda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tildi. 1940- yildan esa kirill alifbosi joriy qilindi. 1991- yildan O'zbekiston tarixida yangi davr boshlandi. Biz o'z mustaqilligimizni qo'lga kiritdik va o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Shu bilan bir qatorda, 1993- yil 2- sentabrdan lotin yozuviga

¹ O'z.Res.Prez. Sh.Mirziyoyevning “Ozbek tiliga Davlat maqomi berilganligining 30 yilligi bayramidagi nutqidan”



asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tish haqida qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2005- yildan respublikamizda lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi to'liq amal qila boshladi. o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi, "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunlari o'zbek tilini o'qitishni tubdan isloh qilish, yangi o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratish, o'zbek tili talimning yangi, samarali usullarini ishlab chiqish va taiim jarayoniga tatbiq etish vazifalarini qo'ygan. Nihoyat, 1989- yilning 19- oktabr kuni bu o'ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi.

Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqea edi. Qabul qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan himoya qilish, tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yilgan edi. Bu qonun o'sha paytda boshqa respublikalarda qabul qilingan tilga oid hujjatlardan o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turishini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, mazkur qonun davlat idoralarida ishlash, ta'lim olish, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilish, fuqarolik singari masalalarda odamlarning huquq va erkinliklarini kamsitadigan turli shartlardan xoli ekani bilan jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan talab va qoidalarga to'liq javob berar edi. Shuning uchun ham u ko'pmillatli xalqimiz tomonidan ijobiy kutib olingani bejiz emas.

O'zbek milliy tilining shakllanishi o'zbek millatining shakllanishi protsessi bilan bog'liq. O'zbek millati shakllangunga qadar u urug' tili va elat tili tarzida yashab, rivojlanib kelgan. Zero, ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi bilan birga millatlar ham tashkil bo'la boshlaydi. Ana shu millatlarning asosiy elementi bo'lgan til birligi-milliy tili ham yuzaga keladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishi va mukammallashuvida eski o'zbek adabiy tili an'analari, xalq tili, mahalliy dialektlar va xalq shevalarining materiallari bilan bir qatordagi tilning ta'siri ham kuchli bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020- yilning 20-oktabr kuni "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonni imzoladi.

Undan ko'zlangan maqsad - o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilashdir.

Shuningdek, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiyada mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish, ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq

madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda o'zbek tilining ona tili va davlat tili sifatidagi faoliyati, shuningdek, yurtimizdagi 130 dan ortiq tillarning yashashi, ularning rivoji borasida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor, umuman, shakllangan til siyosatiga daxldor muammolarni o'rganish ham sotsiolingvistikaning muhim va alohida yo'nalishlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining sotsiolingvistik muammolarini ko'lamli va teran tadqiq etish tilimiz rivojini yanada jadallashtirish, yurtimizdagi lisoniy vaziyat barqarorligini ta'minlash va mamlakatimizda shakllangan xolis va odil til siyosatini tugal idrok etish hamda uning targ'ibini yanada yuksak bosqichga ko'tarish ishiga ko'maklashadi. Milliy yuksalish sari dadil odimlayotgan O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi davri ana shunday tadqiqotlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, **har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir.**

O'zbek tili musiqa, kino, adabiyot va hatto internetdagi kontenti tufayli rivojlanishda, o'zgarishda va zamonaviylik kasb etishda davom etmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Jo'rayev M. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2019. – 240 b.
3. Usmonov S. Til siyosati va milliy o'zlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 198 b.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining dolzarb masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 312 b.
5. Qosimov B. O'zbek tilining xalqaro nufuzi. – Toshkent: Tafakkur, 2017. – 150 b.
6. Nazarov Q. Globallashev va til madaniyati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2021. – 204 b.
7. Yo'ldoshev M. Raqamli tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 220 b.
8. Xudoyberdiyeva D. O'zbek tilining terminologik tizimi va uni unifikatsiya qilish masalalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 168 b.